



O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
Samarqand davlat universitetining
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti



TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA

ILMIY-USLUBIY JURNAL

ISSN 2181-2659

2025/N°3



SLIB.UZ
Scientific library of Uzbekistan





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETINING
DENOVA TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI**

TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA
Ilmiy-uslubiy jurnal

ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО И ПЕДАГОГИКА
Научно-методический журнал

ENTREPRENEURSHIP AND PEDAGOGY
Scientific and methodical journal

2025-yil 3-son

DENOVA – 2025



Tadbirkorlik va pedagogika ilmiy-uslubiy jurnali OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/5-son qaroriga asosan 13.00.00 – Pedagogika fanlari bo'yicha OAK nashrlari ro'yxatiga kiritilgan. Entrepreneurship and pedagogy scientific and methodical journal was included in the list of publications on Pedagogical Sciences at 13.00.00 based on the decision of the HAC (the Higher Attestation Commission) No. 325/5 dated September 30, 2022.

Tahrir kengashi raisi: Ruziyev Oybek Abdimo'minovich – DTPI rektori

Bosh muharrir: Shukurov Rustam Eshonqulovich – Imiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor

Mas'ul muharrir: Allayorova Soliha Narzullayevna – O'quv ishlari bo'yicha prorektor

Mas'ul kotib: Jurayev Boxodir Turdaliyevich – Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i.

Muharrir: Mordayev Bekzod Turobovich

Chairman of the editorial board: Ruziyev Oybek Abdumuminovich – Rector of DIEP.

Editor-in-chief: Shukurov Rustam Eshonkulovich – Vice-Rector for scientific affairs and innovations.

Responsible editor: Allayorova Soliha Narzullayevna – Vice-Rector for academic affairs.

Responsible secretary: Jurayev Bokhodir Turdaliyevich – Head of the department of scientific research, innovations and scientific and pedagogical personnel training.

Editor: Mordayev Bekzod Turobovich

Tahrir hay'ati a'zolari:

Raximov G'anisher Xudoyqulovich – Filologiya fanlari doktori (PhD), professor.

Sol Von Te (Janubiy Korea) – Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Dani Raviprakash Gavindrao (AQSH) – Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor.

Musurmonkulova Madina Nosirovna – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), DTPI

Suvonov Zavqiddin Norqulovich – Filologiya fanlari doktori (DSc), DTPI.

Rajapov O'tkir Do'snayeich – Iqtisod fanlari doktori (DSc), DTPI.

Bozorov Ruslan Hamdamovich – Iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, DTPI.

Melikov Otabek Maxmadaminovich – Iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), DTPI.

Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich – Iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), DTPI.

Allayarova Soliha Narzullayevna – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, DTPI.

Shukurov Rustam Eshonqulovich – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), DTPI.

Maxmudov Shokir Kamolovich – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), DTPI.

To'raxonov Fozil Bobonazarovich – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), DTPI.

Mirzayev Mutalib Jurayevich – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, DTPI.

Norboyeva Sarvinoz Mengaliyevna – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, DTPI.

Members of the Editorial Board:

Rakhimov Ganisher Khudoikulovich – Doctor of philological sciences (PhD), Professor.

Sol Von Te (South Korea) – Doctor of philosophy in philological sciences (PhD).

Dani Raviprakash Gavindrao (USA) – Doctor of philosophy in philological sciences (PhD), professor.

Musurmonkulova Madina Nosirovna – Doctor of philosophy in pedagogical sciences (PhD), DIEP.

Suvonov Zavqiddin Norqulovich – Doctor of philological sciences (DSc), DIEP.

Rajapov O'tkir Do'snayeich – Doctor of economic sciences (DSc), DIEP.

Bozorov Ruslan Hamdamovich – Doctor of philosophy in economics (PhD), Associate professor, DIEP.

Melikov Otabek Makhmadaminovich – Doctor of philosophy in economics (PhD), DIEP.

Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich – Doctor of philosophy in economics (PhD), DIEP.

Allayarova Soliha Narzullaevna – Doctor of philosophy in pedagogical sciences (PhD), Associate professor, DIEP.

Shukurov Rustam Eshonkulovich – Doctor of philosophy in pedagogical sciences (PhD), DIEP.

Makhmudov Shokir Kamolovich – Doctor of philosophy in pedagogical sciences (PhD), DIEP.

Turahonov Fozil Bobonazarovich – Doctor of philosophy in pedagogical sciences (PhD), DIEP.

Mirzaev Mutalib Juraevich – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate professor, DIEP

Norboyeva Sarvinoz Mengaliyevna – Doctor of philosophy in pedagogical sciences (PhD),

PEDAGOGIKA

BOSHLANG'ICH TA'LIM METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI

JABBOROVA ONAXON MANNAPOVNA

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

“Boshlang'ich ta'lim metodikasi” kafedrasi dotsenti

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: jabborovaonaxon@gmail.com

UDK: 373.3;37.091.3

<https://orcid.org/0000-0002-7700-366X>

Kalit so'zlar:

boshlang'ich ta'lim,
metodika,
takomillashtirish,
innovatsion ta'lim,
yondashuv, tizim,
tajriba, amaliyot.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim metodikasini takomillashtirish jarayonida innovatsion yondashuvlarning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilinadi. Metodikaning zamonaviy transformatsiyasi, ta'lim sifatini oshirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya vositalari va interaktiv usullarning samaradorligi o'rganiladi. Ilmiy-metodik tahlil natijasida o'quvchilarning bilim olish faolligini oshirish, shuningdek, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik yechimlar taklif etiladi. Shuningdek, innovatsion yondashuvlarning milliy ta'lim tizimiga moslashuv darajasi, mavjud muammolar va imkoniyatlar ko'rib chiqiladi. Umuman olganda, innovatsion yondashuvlar boshlang'ich ta'limda samarali natijalarga erishish, pedagogning kasbiy faoliyatini takomillashtirish hamda ta'lim mazmunini boyitishda muhim omil sifatida baholanadi.

ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ МЕТОДИКИ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Ключевые слова:

начальное
образование,
методика,
совершенствование,

Аннотация:

В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты инновационных подходов в процессе совершенствования методики начального образования. Изучается современная трансформация методики, эффективность инновационных

инновационное обучение, подход, система, опыт, практика.

педагогических технологий, информационно-коммуникационных средств и интерактивных методов в повышении качества образования. В результате научно-методического анализа предлагаются методические решения, служащие повышению познавательной активности учащихся, а также развитию навыков творческого и критического мышления. Также рассматривается уровень адаптации инновационных подходов к национальной системе образования, существующие проблемы и возможности. В целом инновационные подходы оцениваются как важный фактор достижения эффективных результатов в начальном образовании, совершенствования профессиональной деятельности педагога и обогащения содержания образования.

INNOVATIVE APPROACHES TO THE IMPROVEMENT OF PRIMARY EDUCATION METHODOLOGY

Keywords:

primary education, methodology, improvement, innovative education, approach, system, experience, practice.

Abstract:

This article analyzes the theoretical and practical aspects of innovative approaches in the process of improving the methodology of primary education. The modern transformation of methodology, the effectiveness of innovative pedagogical technologies, information and communication tools, and interactive methods in improving the quality of education are studied. As a result of scientific and methodological analysis, methodological solutions are proposed that serve to increase students' learning activity, as well as the development of creative and critical thinking abilities. The degree of adaptation of innovative approaches to the national education system, existing problems and opportunities are also considered. In general, innovative approaches are assessed as an important factor in achieving effective results in primary education, improving the professional activity of a teacher, and enriching the content of education.

KIRISH

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida boshlang‘ich ta‘limni rivojlantirish belgilab berilgan bo‘lib, mazkur yo‘nalish ta‘lim sohasidagi islohotlarning asosiy poydevorini tashkil etadi [1, 2]. Shu munosabat bilan boshlang‘ich ta‘lim metodikasini takomillashtirish hamda bu jarayonga innovatsion yondashuvlarni joriy etish dolzarb va o‘z vaqtida bajarilishi lozim bo‘lgan muhim vazifa hisoblanadi. Zero, zamonaviy ta‘lim muhitida ijodiy va mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirish uchun metodik jihatdan puxta asoslangan hamda yangilikka ochiq tizimga ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Jahon ta‘lim makonida kechayotgan tub o‘zgarishlar, ta‘lim mazmunini isloh qilish jarayonlari hamda raqamli texnologiyalar integratsiyasi barcha fan sohalari qatori boshlang‘ich ta‘lim metodikasiga ham jiddiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda zamonaviy pedagogik nazariya va amaliyotning taraqqiyoti ta‘lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni tatbiq etishni talab etmoqda. Boshlang‘ich sinflarda ta‘lim metodikasini takomillashtirish orqali ta‘lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, fanlararo bog‘liqlikni ta‘minlash va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish imkoniyati yuzaga keladi.

Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi – bu boshlang‘ich ta‘limning nazariy, didaktik va amaliy masalalarini hal etishga yo‘naltirilgan ilmiy-metodik faoliyat yo‘nalishidir [2, 36]. Uni takomillashtirishga doir nazariy masalalarni quyidagi asosiy yo‘nalishlarda ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir:

- zamonaviy boshlang‘ich ta‘limga qo‘yilayotgan innovatsion talablarni aniqlash;
- metodikaning innovatsion xususiyatlarini belgilash;
- integratsion jarayonlarning shakllanishini o‘rganish [3, 53].

Mazkur yondashuvlar boshlang‘ich ta‘lim metodikasini yangi bosqichga olib chiqish hamda uni ilmiy asoslangan tarzda takomillashtirish imkonini beradi. Bu borada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar ta‘lim jarayonining har bir bosqichida metodik yondashuvlar uyg‘unligini ta‘minlashga xizmat qilishi zarur [4].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Boshlang‘ich ta‘lim metodikasini takomillashtirish jarayonida innovatsion yondashuvlarni joriy etish, avvalo, ushbu sohaning nazariy-metodologik poydevorini shakllantirishni talab qiladi. Ushbu ilmiy tadqiqotning nazariy asoslari konstruktivizm, kognitiv psixologiya, integrativ ta‘lim nazariyalari hamda interfaol ta‘lim texnologiyalariga tayanadi. Xususan, Jon Dyui L.S. Vigotskiy J. Piaje J.Raven, A.V.Petrovskiy kabi pedagog va psixologlarning nazariy qarashlari metodik

yondashuvlarning shakllanishiga asos bo'lgan [5, 46].

Adabiyotlar tahlili davomida boshlang'ich ta'lim sohasida innovatsion metodlarning qo'llanilishiga doir bir qator ilmiy tadqiqotlar o'rganildi. Jumladan, X.Umurzoqova boshlang'ich ta'limda modulli ta'lim texnologiyalarining samaradorligini tahlil qilgan [6, 156], V.A.Slastyonin esa Rossiyada innovatsion pedagogik jarayonning mohiyatini ochib bergan [7, 79]. D.X.Jalilov esa STEAM ta'lim yo'nalishini milliy ta'lim tizimiga moslashtirish masalalarini tadqiq etgan [8, 36].

Mazkur tahlillar davomida ayrim tadqiqotlarda e'tibordan chetda qolgan muammolar ham aniqlandi. Jumladan, boshlang'ich ta'limda interfaol usullar va innovatsion texnologiyalarning mahalliy maktab muhitiga moslashtirilgan holda kompleks tatbiqi yetarlicha o'rganilmagan. Shuningdek, turli manbalarda innovatsion yondashuvlarning samaradorligiga oid qarama-qarshi xulosalarning mavjudligi ham kuzatildi [9, 85].

Tadqiqotning dolzarbligi boshlang'ich sinflarda ta'lim jarayonini zamonaviy talablarga mos ravishda isloh qilish zarurati bilan bog'liq. Ta'lim mazmunining globallasuvi hamda raqamli transformatsiya jarayonlari pedagogik metodikani qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – boshlang'ich ta'lim metodikasini zamonaviy innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlash hamda ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi ilmiy vazifalar belgilandi:

1. Innovatsion ta'lim texnologiyalarining nazariy asoslarini o'rganish;
2. Amaliy tahlillar asosida innovatsion usullarning samaradorligini baholash;
3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi yangi metodlarni joriy etish;
4. Milliy ta'lim muhitiga mos keluvchi innovatsion modellarni ishlab chiqish.

Tadqiqotda metodologik asos sifatida qiyosiy tahlil, didaktik monitoring, kontent-tahlil, sotsiometrik so'rov hamda eksperimental tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Shu bilan birga, metodik konsepsiyalarni chuqur anglash maqsadida xalqaro tajriba – AQShlik olim J.Bransford [10, 37], Singapurlik Lee Tan [11, 91] va fin pedagogi Pasi Sahlberg [12] ning ishlari o'rganildi hamda ularni milliy modelga moslashtirish imkoniyatlari tahlil qilindi.

NATIJALAR

Tadqiqot davomida boshlang'ich ta'lim metodikasiga innovatsion yondashuvlarni joriy etish samaradorligini aniqlash maqsadida kompleks tahlil

amalga oshirildi. Amaliy-eksperimental jarayonda didaktik funktsionallik, metodik diversifikatsiya, interfaol muhitning ta'siri hamda kognitiv motivatsiya dinamikasi o'rganildi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning refleksiv-amaliy faolligini 38% ga oshirdi. Ta'lim jarayoniga multimodal texnologiyalar (interaktiv slaydlar, AR/VR elementlari)ni joriy etish natijasida o'quvchilarning nazariy bilimni o'zlashtirish darajasi 1,3 barobarga ortgani qayd etildi.

Jadval va diagrammalar asosida o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki, metodik yangilanishlardan foydalangan guruhlarda tafakkur darajasi yuqori bo'lgan o'quvchilar soni sezilarli darajada oshdi. Qiyosiy tahlil natijalariga ko'ra, innovatsion yondashuvlar asosida ta'lim olgan o'quvchilarda mustaqil qaror qabul qilish, tahliliy fikrlash va ijodiy yechim topish ko'nikmalari an'anaviy metodlar bilan o'qitilgan o'quvchilarnikiga nisbatan 26-32% yuqori ekani aniqlangan.

Tadqiqot doirasida jami 610 nafar respondent ishtirok etdi. Ulardan 310 nafari tajriba guruhiga, 300 nafari esa nazorat guruhiga jalb etildi. Tajriba-sinov ishlari "Boshlang'ich ta'lim metodikasini takomillashtirishning innovatsion yondashuvlari" mavzusida tashkil etilib, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Termiz davlat pedagogika instituti va Jizzax davlat pedagogika institutlarida amalga oshirildi. Tadqiqotning asosiy maqsadlaridan biri – zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'quvchilar rivojlanishiga ta'sirini aniqlashdan iborat bo'ldi.

Tadqiqot davomida boshlang'ich ta'limda innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali ta'lim sifati hamda o'quvchilarning shaxsiy salohiyatiga ta'sir etuvchi asosiy omillar chuqur o'rganildi. Xususan, didaktik funktsionallik, metodik diversifikatsiya, interfaol muhitning o'quvchilarga ta'siri, kognitiv motivatsiya darajasi va o'quvchilarning mustaqil fikr yuritish qobiliyatlari tahlil qilindi.

Amaliy jarayonda AR/VR texnologiyalari, interaktiv slaydlar, hamkorlikka yo'naltirilgan o'qitish metodlari kabi multimodal vositalardan keng foydalanildi. Bu usullar o'quv jarayonini faollashtirish, o'quvchilarni bilim olishga rag'batlantirish, ularda ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda muhim rol o'ynadi.

1-jadval

Tajriba va nazorat guruhlari o'rtasida aniqlangan natijalar solishtirma jadval shaklida

Ko'rsatkichlar	Tajriba guruhi (310 nafar)	Nazorat guruhi (300 nafar)	Farq (%)
Refleksiv-amaliy faollik darajasi	38% oshgan	Ahamiyatli o'zgarish yo'q	+38%
Nazariy bilimni o'zlashtirish darajasi	1,3 barobarga oshgan	Barqaror, o'zgarish yo'q	+30%
Tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyati yuqori o'quvchilar soni	Sezilarli o'sish	Turg'un holat	+37%
Mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari	Yaxshi shakllangan	O'rtacha darajada	+26-32%
Ijodiy yechim topish qobiliyati	Faol rivojlangan	Kam rivojlangan	+26-32%

Tahlillar natijalariga ko'ra, innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini shakllantirishda yuqori samaradorlikka erishganini ko'rsatadi. Ayniqsa, interaktiv va multimodal ta'lim vositalarining qo'llanilishi o'quvchilarning bilimni mustaqil egallashi, tahlil qilish, ijodiy yechim topish kabi faoliyatlarida sezilarli o'sishga olib kelgan.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, boshlang'ich ta'limda innovatsion metodlarni joriy etish nafaqat bilim darajasini oshiradi, balki o'quvchilarning shaxsiy salohiyatini rivojlantirish, mustaqil fikrlash, ijodkorlik hamda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda ham muhim omil hisoblanadi. Tajriba guruhida olingan natijalar ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalardan tizimli foydalanish zarurligini ko'rsatadi.

Shu bois kelgusida boshlang'ich sinflarda ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish maqsadida innovatsion yondashuvlarning keng ko'lamda tatbiq etilishi tavsiya etiladi. Buning uchun pedagoglarni zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashga

o'rgatish, metodik qo'llanmalarni yangilash hamda ta'lim muhitini interaktiv platformalar asosida takomillashtirish muhim hisoblanadi.

MUHOKAMALAR

Boshlang'ich ta'lim metodikasini takomillashtirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar zamonaviy pedagogikadagi dolzarb masalalardan biri bo'lib, o'quv jarayonini optimallashtirish va axborot olish faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Tadqiqotimiz natijalari shuni ko'rsatdiki, innovatsion ta'lim texnologiyalari zamonaviy ta'lim muhiti talablariga mos keladi hamda o'quv jarayonini mustahkamlash va samaradorlikni oshirish imkonini beradi.

Boshlang'ich ta'lim metodikasini takomillashtirish jarayonidagi innovatsion yondashuvlar bo'lajak pedagoglarda faol ta'lim strategiyalarini shakllantirish, refleksiv yondashuvni rivojlantirish va kognitiv mustaqillikni ta'minlashga xizmat qiladi. O'tkazilgan tadqiqot natijalari pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarning samarali integratsiyasi ta'lim jarayonida kompetensiyaga asoslangan yondashuvni kuchaytirishini ko'rsatdi.

Tahlillar shuni tasdiqladiki, ta'limiy intervensiyalar natijasida o'qituvchilarning metodik tayyorgarligida sezilarli ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Bu holat zamonaviy ta'lim formatlarini, xususan STEAM-model, aksiologik ta'lim va keys-texnologiyalarni joriy etish orqali ta'minlandi.

Biroq ayrim muammolar ham aniqlangan bo'lib, ulardan biri – pedagoglarning zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan xabardorlik darajasi va amaliy ko'nikmalarining yetarli emasligidir. Shuningdek, davlat ta'lim standartlarida belgilangan kompetensiyalar tizimini to'liq amalga oshirish uchun mavjud pedagogik modelni qayta ko'rib chiqish zarurati ta'kidlandi.

Faraz qilinishicha, metodik innovatsiyalar ta'lim sifatini oshirishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilishi lozim edi va tadqiqot natijalari bu taxminni tasdiqladi. Shu asosda, amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim, fasilitatsion yondashuv hamda fleksibil modullar asosida ta'lim dasturlarini ishlab chiqish bo'yicha aniq tavsiyalar ilgari surildi.

Bundan tashqari, tadqiqot natijalari pedagoglarning kasbiy rivojlanishini rag'batlantiruvchi professional ekotizimni shakllantirish zarurligini ham ko'rsatmoqda. Kelgusi izlanishlarda innovatsion ta'lim modellari muayyan yosh guruhlariga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganish, shuningdek, ta'lim sifatini baholashning metrik ko'rsatkichlarini takomillashtirish tavsiya etiladi.

XULOSA

Boshlang'ich ta'lim metodikasini takomillashtirishda innovatsion yondashuvlar,

xususan STEAM ta'lim yo'nalishining integratsiyasi, o'quvchilarning ijodiy faoliyati va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, innovatsion metodlar ta'lim jarayoniga joriy etilganida, o'quvchilarning muammolarga yechim topish qobiliyatini oshirish, bilim darajasini yaxshilash va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Biroq bu jarayonda ayrim to'siqlar mavjud bo'lib, ular innovatsion yondashuvlarning samaradorligini to'liq namoyon qilishiga xalaqit beradi. Xususan, yangi metodlarning mahalliy ta'lim tizimiga moslashtirilishi va pedagoglarning innovatsion texnologiyalarga tayyorgarlik darajasi yetarli darajada bo'lishi zarur.

Kelgusi tadqiqotlar innovatsion yondashuvlarning keng miqyosdagi amaliy tatbiqini, ularning turli sharoitlardagi samaradorligini chuqur o'rganishga yo'naltirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. – Toshkent, 2023.
2. Jabborova O. Boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalar: darslik. – Toshkent, 2023.
3. Jabborova O., Umarova Z., Boboxodjayeva L. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi: darslik. – Toshkent, 2021.
4. Mardonov Sh. Pedagogika fanidan o'qitishning elektron-modulli didaktik ta'minotini ishlab chiqish texnologiyasi. – Toshkent, 2021.
5. Dewey J. Demokratiya va ta'lim: tarjima. – M.: Pedagogika, 2000.
6. Umurzoqova X. Boshlang'ich ta'limda innovatsion usullarni joriy etish. – Toshkent: Fan, 2019.
7. Slastyonin V.A. Pedagogika: innovatsion jarayonlar. – M.: Akademiya, 2003.
8. Jalilov D.X. Boshlang'ich ta'limda STEAM texnologiyasini joriy etish. – Nukus, 2021.
9. Nazarova L.X. Pedagogik innovatsiyalardagi metodologik qarama-qarshiliklar. – Samarqand, 2020.
10. Bransford J.D., Brown A.L., Cocking R.R. How People Learn: Brain, Mind, Experience, and School. – Washington, DC: National Academy Press, 2000.
11. Tan L. Innovative Teaching in Primary Schools of Singapore. – Singapore, 2017.
12. Sahlberg P. Finnish Lessons: What Can the World Learn from Educational Change in Finland? – New York: Teachers College Press, 2011.

13. **Kosimov A. D.** Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida ijodiy fikrlashni rivojlantirishda integrativ va simulyativ texnologiyalar uyg'unligi..... 118-124
14. **Niyozova M. N.** Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlarini takomillashtirish.....125-131
15. **Sultanov O. S.** Oliy ta'lim professor-o'qituvchilarining kasbiy ko'rsatgichlarini takomillashtirish.....132-139
16. **Amirova H. O.** Tayyorlov guruhlarida atrof-muhitni asrab-avaylash ko'nikmalarini shakllantirish asoslari..... 140-147
17. **Jabborova O. M.** Boshlang'ich ta'lim metodikasini takomillashtirishning innovatsion yondashuvlari..... 148-155
18. **Tilavova S. B.** STEAM yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirishda TPACK modelining roli.....156-163
19. **Tashpulatova D. M.** Boshlang'ich ta'lim amaliyotida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish metodining innovatsion usullari.....164-170
20. **Kuchkinov A. Y, Do'stmurodova D. R.** "Bilga xoqon" romanida birlik tushunchasining talqini.....171-178
21. **Mustarova D. E.** Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishda STEAM yondashuvining samaradorligi..... 179-188
22. **Dustov S. R.** IV sinf o'quvchilarining ekologik tafakkurini shakllantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish metodikasi.....189-196
23. **Ismoilov B. I, Qosimova G. E.** Zamonaviy axborot texnologiyalari orqali yoshlar ongida vatanparvarlik g'oyalarini mustahkamlash..... 197-204
24. **Yuldoshev T. A.** Improving psychological foundations of establishing responsible relationships within families in youth.....205-216
25. **Allayeva H. R.** Boshlang'ich sinflarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi..... 217-226
26. **Merganov Sh. M, Noraliyev S. N, Doniyorova G. T.** Klasterli yondashuv va uning ilmiy ahamiyati.....227-233
27. **Saidova P. M.** Oliy ta'lim o'qituvchilarida kasbiy-pedagogik deformatsiyaning profilaktik tizimini takomillashtirishning mavjud



Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining
“**Tadbirkorlik va pedagogika**” ilmiy-uslubiy jurnali
2020-yil 18-sentabrda 1114-raqamli guvohnoma bilan
ro‘yxatga olingan. Har chorakda bir marotaba chop etiladi.

Jurnalda nashr etilgan maqolalar <https://inlibrary.uz/>, <https://slib.uz/uz/>,
<https://scholar.google.com>, <https://www.openaire.eu/>, <https://www.researchbib.com/>
platformalarida indekslanadi.

Terishga berildi: 15.06.2025-yil.

Bosishga ruxsat etildi: 20.06.2025-yil.

Qog‘oz bichimi 60*84 1/8. Adadi – 50 ta.

Nashr tabog‘i – 13,5. Buyurtma № 1-T.

Manzilimiz: 190507, Surxondaryo viloyati
Denov shahri Sharof Rashidov ko‘chasi 360-uy.

info_dtpi@yedu.uz, dtpi@yexat.uz

+998-95-650-77-57

Maqola nashr ettirish maqsadida bog‘lanish uchun:
+998 90 976-76-98. URL: <https://t.me/MrScott98>

Maqolalarda keltirilgan fikr va raqamlar uchun mualliflar javobgardir.



TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA

ILMIY-USLUBIY JURNAL

ISSN 2181-2659